



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2107-2
2025 - yil 13 - Avgust

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO'MITASINING
QARORI

**O'zbekiston Respublikasining professional va oliy ta'lim
tashkilotlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha
imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va
qo'shimcha kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2010-yil 24-martdagi 24 va 2010-15-son qarori (ro'yxat raqami 2107, 2010-yil 27-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 21-son 169-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2025-yil 17-iyul
273-son



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Rais
2025-yil 7-iyul
2025-14-son



KUDBIYEV SHERZOD
DAVLYATOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya
vazirligining 2025-yil 17-iyuldagi 273-son va Soliq
qo‘mitasining 2025-yil 7-iyuldagi 2025-14-son qaroriga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta’lim
tashkilotlarida ta’lim olish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larga
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha
imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan
o‘zgartirishlar**

1. 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga (o‘zining, farzandlarining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining)) yo‘naltiriladigan to‘lovlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi.”.

2. 2-banddagi “o‘zining, shuningdek, yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining)” degan so‘zlar “o‘zining, farzandlarining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. O‘zining, farzandlarining yoki erining (xotinining) o‘qishi uchun to‘langanda soliq chegirmasi jismoniy shaxs – ta’lim oluvchiga, uning ota-onalariga, shuningdek, agar o‘qish uchun to‘lov ta’lim oluvchi yigirma olti yoshga to‘lguniga qadar amalga oshirilgan bo‘lsa xotiniga (eriga) beriladi.”.